XALQ DEPUTATLARI TOYLOQ TUMANI KENGASHINING QARORI

2022 - yil 30 - dekabr VI-68-232-7-104-K/22 Toyloq tuman hokimligi

Toyloq tumanining 2023-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

Budjet kodeksining 99-moddasi, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, tuman hokimining birinchi o‘rinbosarining 2022-yil 26-dekabrdagi (01-02/137-sonli) bildirgisi, tuman hokimligi moliya bo‘limining 2022-yil 20-dekabrdagi (01/01-34/320-sonli) xulosalarini inobatga olib, xalq deputatlari tuman Kengashining otmish sakkizinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” Qonuniga (keyingi o‘rinlarda - Qonun deb ataladi) muvofiq, Toyloq tumani mahalliy budjetining 2023-yil uchun daromadlari 149 081,2 mln. so‘m, xarajatlari 209 548,2 mln. so‘m prognoz qilinganligi hamda viloyat budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 60 466,9 mln. so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2023-yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq;

4. 2023-yil uchun tuman budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga

muvofiq tasdiqlansin.

5. Quyidagilar:

6. 2023-yil uchun tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 60 466,9 mln. so‘mga tasdiqlanganligini qabul qilish:

7. Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy budjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2023-yil uchun tuman mahalliy budjetining zaxira jamg‘armasi 1 976,9 mln.so‘m hamda fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi 9 884,4 mln. so‘m miqdorida belgilansin.

9. Tuman budjetining 2023-yil uchun zaxira jamg‘armasi tuman budjetining tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

10. 2023-yil uchun tuman budjetining shaxsiy g‘azna hisob varag‘ida turgan budjet mablag‘larining eng kam miqdori 1 163,0 mln. so‘m qilib belgilansin.

11. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2023-yilda xalq deputatlari tuman Kengashini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini tuman budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

12. Qonunga muvofiq, 2023-yilda quyidagi soliq turlari tuman budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

- jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

- jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

- jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan;

- yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

- aylanmadan olinadigan soliq;

- davlat obyektlarini ijaraga berishdan olinadigan daromadlar;

- noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

- yig‘imlar;

- yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i.

- 2022-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq mobil aloqa xizmatlari uchun, sigaret uchun va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar.

13. Viloyat budjeti hamda tuman budjeti o‘rtasida taqsimlanadi:

- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining 45 foizi tuman budjetida qoldiriladi;

- yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining 40 foizi tuman budjetida qoldiriladi;

- yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan solig‘idan 40 foizi tuman budjetida qoldiriladi;

- yuridik shaxslar yer solig‘idan 40 foizi tuman budjetida qoldiriladi;

14. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Xujamurodov), tuman moliya bo‘limi (A.Sharipov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Sharipov) va mas’ul korxona va tashkilotlar bilan birgalikda:

budjetdan mablag‘ oluvchilarning birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

mahalliy budjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratilsin.

15. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Xujamurodov), tuman moliya bo‘limi (A.Sharipov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Sharipov)ga:

budjet daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishini ta’minlash;

soliq bazasini kengaytirish, iqtisodiy salohiyatni oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilash, budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish ustidan qat’iy nazoratni o‘rnatish;

tegishli ravishda hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarning budjet mablag‘laridan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalar bo‘yicha hisobotlarini xalq deputatlari tuman Kengashiga kiritib borilishini ta’minlasin.

16. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Mirzayev) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Xujamurodov) zimmasiga yuklatilsin.

17. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengashi Raisi **B.Babonazarov**

Xalq deputatlari Toyloq tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-68-232-7-104-K/22-son qaroriga
1-ilova

2023-yil uchun Toyloq tumani budjetining daromadlari prognoz ko‘rsatkichlari

T/r	Daromad turlari	Jami
JAMI		**149 081 250,00**
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	36 266 850,00
2	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	15 431 200,00
3	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	7 882 000,00
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	10 219 000,00
5	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 741 000,00
6	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	3 166 000,00
7	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	3 212 000,00
8	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 027 600,00
9	Yuridik shaxslar yer solig‘i	4 199 600,00
10	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	21 901 000,00
11	Korxonalar aylanmasidan soliq	9 007 000,00
12	Yig‘imlar	308 000,00
13	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	151 000,00
14	Alkogol mahsulotlariga aksiz solig‘i, shu jumladan pivo	13 985 000,00
15	Mobil aloqa xizmati	5 999 000,00
16	Sigaret uchun aksiz solig‘i	14 585 000,00

Xalq deputatlari Toyloq tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-68-232-7-104-K/22-son qaroriga
2-ilova

2023-yil uchun Toyloq tumanining hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

T/r	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
Xarajatlar miqdori, Jami		**209 548 237,00**
1	Xalq ta’limi bo‘limi	10 603 179,00
2	Maktabgacha ta’lim bo‘limi	15 280 708,00
3	Tibbiyot birlashmasi	71 474 000,00
4	Madaniyat bo‘limi	5 906 159,00
5	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	1 686 806,00
6	Irrigatsiya bo‘limi	918 750,00
7	Jismoniy tarbiya va sport bo‘limi	5 900 318,00
8	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi	1 199 500,00
9	Bandlik va mehnat munosabatlari bo‘limi	757 625,00
10	Moliya bo‘limi	1 313 071,00
11	Hokimiyat	81 942 509,00
12	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Toyloq tumanidagi muassasalar	551 623,00
13	Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati	185 963,00
14	Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi	4 183 600,00
15	Yoshlar ishlar agentligi tuman bo‘limi	4 633 459,00
16	Oila va xotin-qizlar bo‘limi	3 010 967,00